BUXORO VILOYATI SHOFIRKON TUMAN HOKIMINING QARORI

201100, Shofirkon tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 4-uy. Tel: (365) 502-20-04, faks: 502-25-47, e-mail: info@shofirkon.uz, shofirkon.t@exat.uz

2024 - yil 18 - yanvar 29-2-41-Q/24 Shofirkon tuman hokimligi

Buxoro viloyati hokimining 2023-yil 10-yanvardagi 19-2-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrdagi PF-216-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilganligi munosabati bilan ayrim vazirlik va idoralarning aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish sohasidagi funksiyalarini optimallashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda Buxoro viloyati hokimining 2023-yil 10-yanvardagi 19-2-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrdagi PF-216-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilganligi munosabati bilan ayrim vazirlik va idoralarning aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish sohasidagi funksiyalarini optimallashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda Buxoro viloyati hokimining 2023-yil 10-yanvardagi 19-2-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi;

Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tugatish hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining ayrim daromadlarini Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasiga yo‘naltirish bo‘yicha takliflariga rozilik berilganligi;

mazkur Farmon 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kirishi hamda Farmonga 1-ilovaning 1, 3 va 14-bandlari 2024-yil 1-maydan amalga kiritilishi belgilanganligi;

Viloyat hokimining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining 2021-yil 3-apreldagi 252-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-martdagi PQ-5038-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Tuman tibbiyot birlashmasi (A.Shobekov), kambag‘allikni qisqartish va bandlik bo’limi (N.Bekov) 2024-yil 25-yanvarga qadar huquqiy hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-dekabrdagi PF-216-sonli Farmoniga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari A.Qazoqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Fayzilloyev**